

“Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining tartibga solish ta’sirini baholash natijalari haqida

MA’LUMOTNOMA

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-oktabrdagi O‘RQ-301-son “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi Qonuni kredit axborotini yig‘ish, unga ishlov berish, uni tahlil qilish, saqlash, taqdim etish, undan foydalanish hamda kredit axborotini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Mazkur Qonunning asosiy maqsadi kredit axboroti almashinuvi tizimini rivojlantirish, qarz oluvchilarning kredit tarixini shakllantirish, kredit tashkilotlariga kredit tavakkalchiliklarini baholash imkoniyatlarini kengaytirish hamda kredit bozorida axborot shaffofligini ta’minlashdan iborat.

Qonun talablari kredit byurolari, kredit axboroti subyektlari, kredit axborotini yetkazib beruvchilar va kredit axborotidan foydalanuvchilarga nisbatan tatbiq etiladi.

Amaldagi tartibga solish natijasida kredit axborotini kredit byurolariga taqdim etish va undan foydalanish tizimi shakllangan. Kredit tashkilotlari qarz oluvchilarning kredit tarixi va to‘lov intizomi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish orqali kredit tavakkalchiliklarini yanada samarali baholash imkoniyatiga ega bo‘lgan.

“Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi ma’lumotlariga ko‘ra, kredit axborotini taqdim etuvchi subyektlar soni 2024-yilda 771 tani, 2025-yilda 842 tani, 2026-yil 1-iyun holatiga 842 tani tashkil etgan. Kredit axborotidan foydalanuvchilar soni esa mos ravishda 773 ta, 845 ta va 848 tani tashkil etgan.

“CRIF Kredit-axborot xizmatlari” MChJ ma’lumotlariga ko‘ra, kredit axborotini taqdim etuvchi subyektlar soni 2024-yilda 37 tani, 2025-yilda 160 tani, 2026-yil 1-iyun holatiga 199 tani tashkil etgan. Kredit axborotidan foydalanuvchilar soni esa mos ravishda 2 ta, 16 ta va 25 tani tashkil etgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar kredit axboroti almashinuvi tizimining qamrovi kengayib borayotganini hamda kredit axborotidan foydalanish amaliyoti rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 4-martdagi O‘RQ-1043-son Qonuni bilan kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, jismoniy shaxsning o‘z ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimi rasmiylashtirilishining oldini olish maqsadida kredit bitimi tuzishni taqiqlash imkoniyati hamda kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reyestrini yuritish mexanizmlari belgilandi.

Mazkur mexanizmlarni amalga oshirish doirasida “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi tomonidan “Kreditga taqiq” xizmati hamda “Kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reyestri” joriy etildi. Ushbu xizmatlardan foydalanish fuqarolarning kredit sohasidagi huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, firibgarlik holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Qonunning amal qilishi natijasida manfaatdor tomonlar uchun bir qator ijobiy natijalarga erishilgan. Xususan, kredit tashkilotlari uchun qarz oluvchilarning kredit

tarixidan foydalanish, kredit tavakkalchiligini baholash va kredit qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari yaxshilangan. Kredit byurolari uchun kredit axboroti bazasi va foydalanuvchilar doirasi kengaygan. Qarz oluvchilar uchun esa ijobiy kredit tarixini shakllantirish hamda kredit bitimlarini ruqsatsiz rasmiylashtirishning oldini olish imkoniyatlari yaratilgan.

Shu bilan birga, amaldagi tartibga solishni qo'llash jarayonida ayrim tashkiliy va texnik xarajatlar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, kredit tashkilotlari va kredit byurolari tomonidan axborot tizimlarini integratsiya qilish, dasturiy ta'minotni moslashtirish va yangilash, axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni saqlash hamda texnik infratuzilmani qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlar amalga oshiriladi. Shuningdek, kredit axborotini belgilangan muddatlarda va tegishli formatlarda taqdim etishni ta'minlash manfaatdor tomonlar uchun qo'shimcha tashkiliy va operatsion yuklamalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Biroq mazkur xarajatlar va tashkiliy yuklamalar kredit bozorida axborot shaffofligini oshirish, kredit tavakkalchiliklarini samarali baholash, kredit qarorlarini takomillashtirish hamda fuqarolarning kredit sohasidagi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ijobiy natijalar bilan bog'liqdir.

Shu bilan birga, kredit tashkilotlari va kredit byurolarining texnik integratsiya, dasturiy ta'minot, infratuzilmani saqlash va ma'lumot almashish bilan bog'liq xarajatlari bo'yicha Markaziy bankda markazlashtirilgan rasmiy statistik ma'lumotlar mavjud emasligi sababli mazkur xarajatlarning aniq miqdoriy bahosini keltirish imkoniyati mavjud emas.

Umuman olganda, tartibga solish ta'sirini baholash natijalari "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibga solish usuli kredit bozorida axborot almashinuvi rivojlantirish, kredit tavakkalchiliklarini boshqarish samaradorligini oshirish va moliya bozorining shaffofligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan, amaldagi tartibga solish usulini saqlab qolish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Mazkur ma'lumotnoma "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining tartibga solish ta'sirini baholash natijalari yuzasidan jamoatchilik fikrini o'rganish va manfaatdor tomonlarning taklif hamda mulohazalarini olish maqsadida jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilmoqda.